

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KASIMOVA MALIKA ABDUVAKILOVNA

**AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI
O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING
INNOVATSION TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
in Pedagogical Sciences**

Kasimova Malika Abduvakilovna

Akademik litsey o‘quvchilariga xorijiy tillarni o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishning innovatsion texnologiyasi..... 3

Касимова Малика Абдувакиловна

Инновационная технология использования искусственного интеллекта в обучении иностранным языкам учащихся академических лицеев 23

Kasimova Malika Abduvakilovna

Innovative technology of using artificial intelligence in foreign language teaching for academic lyceum students..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published woks.....51

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KASIMOVA MALIKA ABDUVAKILOVNA

**AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI
O‘QITISHDA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING
INNOVATSION TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7833 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o‘zbek, rus, ingliz) tilda Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdujabbarova Zamira Rustamovna**
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: **Isakulova Nilufar Janikulovna**
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Mavlanova Mohira Umrbek qizi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Yetakchi tashkilot: **Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.11.2024.Ped.26.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__» _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27 uy. Tel.: (99871) 276 -79-11; faks: (99871) 276-80-86. e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27 uy. Tel.: (99871) 276 -79-11; faks: (99871) 276-80-86. e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.A.Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, pedagogika fanlari
doktori, professor

N.M.Ahmedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Sh.A.Atadjonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
seminar raisi, pedagogika fanlari
doktori(DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda jamiyatning barcha jabhalarida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va keng qo'llanilishi, ayniqsa sun'iy intellekt (AI)ning xorijiy tillarni o'rgatish sohasiga tatbiq etilishi individual ta'lim jarayonini optimallashtirish, o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirish, o'qituvchilarning esa pedagogik yuklamasini qulaylashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Sun'iy intellektning akademik litseylar ta'lim amaliyotiga integratsiyalashuvi ta'limning individuallashtirish, interfaol va moslashuvi tamoyillarini amalga oshirish, adaptatsiyalashgan ta'lim tizimlarini yaratish, shaxsiy fikr-mulohazalar va tavsiyalar berish, til o'rgatish platformalarini yaratish va real muloqot holatlarini simulyatsiya qilish istiqbollari kengaytiradi. Dunyoning yetakchi davlatlari AQSH, Germaniya, Kanada va Xitoyda sun'iy intellekt yordamida ta'limni raqamlashtirish va interaktiv usullarni qo'llash bugungi kun ta'limining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Jahon ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirish va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni qo'llash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKOning 2021-yilda qabul qilingan sun'iy intellekt etikasi bo'yicha global tavsiyanomasida "sun'iy intellekt salohiyatidan maksimal darajada foydalanish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni minimallashtirish hamda ta'limning inklyuziv va barqaror bo'lishini ta'minlash zarur"¹ligi ta'kidlangan. Ushbu tamoyillar, ayniqsa, xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyati va ehtiyojlarini to'liq hisobga olishni talab qiladi. Sun'iy intellekt davrida intellektual texnologiyalar o'qituvchilarga aynan shu individual ehtiyojlarga ko'proq e'tibor qaratishga va aniq maqsadli o'qitishni amalga oshirishga yordam beradi. Ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda sun'iy intellekt o'quvchilar bilan doimiy, interfaol muloqot qilish, tahlil yuritish va individual qayta aloqani (feedback) taqdim etish orqali o'qitish jarayonini sezilarli darajada samaradorligini oshiradi.

Respublikamizda ingliz tili xalqaro aloqa, ilm-fan, biznes va texnologiya tili sifatida alohida o'rin tutadi. Shu sababli ingliz tilini mukammal egallash, ayniqsa, og'zaki so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirish har bir o'quvchi uchun muhim sanaladi. An'anaviy ta'lim tizimlarida o'quvchilar ko'proq grammatikani o'rganishga e'tibor qaratadi, biroq og'zaki nutq ko'nikmalari ularda yetarlicha shakllanmasligi mumkin. Bu holatda sun'iy intellekt texnologiyalari til o'rgatish modellari, turli chat-botlar orqali til o'rganish jarayonlariga yangi yondashuvlarni olib kiradi. "...xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish"² kabi muhim ustuvor vazifalar o'quvchilarga tilni mustaqil, interaktiv

¹ UNESCO. (2021, 25-noyabr). UNESCO's General Conference reaches global agreements on artificial intelligence, open science and the ethics of neurotechnology. UNESCO. <https://www.unesco.org/en/articles/unescos-general-conference-reaches-global-agreements-artificial-intelligence-open-science-and>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori.

va moslashuvchan tarzda o'rganish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ayniqsa, og'zaki nutqni rivojlantirish borasida sun'iy intellektga asoslangan talaffuz tahlilchilari va virtual suhbatdoshlar samarali mashq maydonini yaratib bermoqda. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv rejalarini shakllantirish bo'yicha ham tizimli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi turli yo'nalishlar qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, jumladan xorijiy (ingliz) tilni o'qitishda interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari bo'yicha N.M.Ahmedova, R.Ishmuxamedov, J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova, F.M.Rashidova; talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalari esa M.X.Gulyamova, A.T.Nurmanov, D.R.Pulatovalar; ta'limdagi innovatsiya masalalari V.Alimasov, N.A.Shermuhammedova, J.G'.Yo'ldoshev; talabalarda innovatsion va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish muammolari A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, F.P.Davronovalar, O.Sh.Toshmatov tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan ta'limda innovatsiyalar borasida V.P.Bespalko, V.R.Imakayev, V.S.Lazarev, D.G.Levitas, V.M.Polonskiy, G.K.Selevko, A.I.Vagizova, N.R.Yusufbekova; kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari A.K.Amraxova, Ye.M.Dubovikova, S.A.Kurilova, N.Yu.Pavlova; raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni xorijiy tillarda qo'llanilishi borasida esa A.I.Bashmakov, A.D.Gartsov, A.V.Gavrilov, V.G.Kinelev, S.N.Pavlov, A.V.Zubov kabi olimlarning izlanishlari mavjud.

Xorijiy tadqiqotchi olimlar tomonidan ta'limda innovatsiyalar va xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion usullar borasida Ronald J.Allen, T.Baker, D.Carless, D.Larsen-Freeman, B.Tomlinson; sun'iy intellektni xorijiy tillarni o'qitishda qo'llanilishi bo'yicha D.Laurillard, M.Levy, T.Schmidt, M.Warschauer kabi olimlar izlanishlar o'tkazganlar.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi akademik litsey o'quvchilarining xorijiy tilda (ingliz tili) gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanish metodikasini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

akademik litsey o'quvchilariga xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

akademik litsey o'quvchilariga xorijiy tillarni sun'iy intellekt asosidagi innovatsion texnologiyalar orqali o'qitish modelini takomillashtirish;

akademik litsey o'quvchilariga xorijiy tillarni sun'iy intellekt asosidagi innovatsion texnologiyalar orqali o'qitish metodikasini rivojlantirish;

akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish metodikasini rivojlantirish jarayoni tanlangan bo'lib, pedagogik tajriba-sinovda Davlat xavfsizlik xizmati "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi, Samarqand davlat universiteti akademik litseyi va Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyining 460 nafar o'quvchilari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish metodikasini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy, tasnifiy), diagnostik (kuzatish, anketa so'rovlari, nazorat), prognostik (umumlashtirish, baholash), pedagogik eksperiment va matematik (ma'lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

akademik litsey o'quvchilariga xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi innovatsion texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari moslashuvchanlik, hamkorlik, ijtimoiy media, refleksiya, til va sun'iy intellekt integratsiyasini o'quvchilarning individual ehtiyojlari, o'zlashtirish darajasi, qiziqishlari va

maqsadlariga moslashtirish, loyihalar ustida ishlash, o'zini-o'zi baholash hamda individual qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

akademik litsey o'quvchilariga xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanishga asoslangan didaktik model, amaliy yondashuvlarni pedagogik tamoyillarga uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual qiziqishi va tahliliy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan til o'rganish jarayoni mazmunini tabiiy tilni qayta ishlash hamda yakka va juft nutq simulyatsiyasi kabi sun'iy intellekt texnologiyalari vositasida talaffuz, leksika va ravonlik kabi komponentlarga ustivorlik berish asosida takomillashtirilgan;

akademik litsey o'quvchilariga xorijiy tillarni sun'iy intellekt asosida o'qitish metodikasi virtual til almashinuvi, muloqot simulyatsiyasi, badiiy ijod texnologiyasi va hikoya qilib berish usullariga ko'ra adaptiv ta'lim platformalari va chatbotlar kabi sun'iy intellektga asoslangan innovatsion vositalar yordamida interaktiv va gemifikatsion rivojlantiruvchi mashqlarni kiritish orqali takomillashtirilgan;

akademik litsey o'quvchilariga xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellektga asoslangan innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali samaradorlikka erishish yondashuvi auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda aniq mezonlar, grammatik to'g'rilik, lug'at boyligi, talaffuz va intonatsiya, ravonlik va izchillik, interaktivlikni baholashning hamda o'quvchilarning o'zini o'zi rivojlantirishga yo'naltirilgan darajalarga muvofiqligini ta'minlash, pedagogik mikromuhitning shaffofligi va dinamikligini aniqlash asosida takomillashtirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish metodikasi takomillashtirilgan;

akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha namunaviy o'quv dasturlari, ishchi o'quv dasturlari, taqvim-mavzu rejalari takomillashtirilgan;

akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish metodikasi baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

tadqiqot ishining mazmuni sifatida "Developing speaking skills" nomli darslik yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari yordamida tasdiqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitishning muhim xususiyatlari ochib berilgan; akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish modeli ishlab chiqildi va ilmiy asoslandi; akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish

jarayonining samaradorligini ta'minlovchi ilmiy asoslangan pedagogik shart-sharoitlar, akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari belgilandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish darajasini aniqlashga qaratilgan diagnostik so'rov usullarini joriy etishda; akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish modelini sinovdan o'tkazish va amalga oshirishda; akademik litsey o'quvchilarining sun'iy intellekt orqali xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini ta'minlaydigan didaktik imkoniyatlarni eksperimental tekshirish bilan belgilanadi. Ushbu ilmiy-tadqiqot materiallaridan bevosita chet tili o'qituvchilarini kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar, uslubiy ishlanmalar va tavsiyalar yozishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: akademik litsey o'quvchilariga xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning innovatsion texnologiyasini rivojlantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

akademik litsey o'quvchilarining xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellekt imkoniyatlari moslashuvchan, hamkorlik, ijtimoiy media, refleksiya va til va sun'iy intellekt integratsiyasi o'quvchilarning individual ehtiyojlari, o'zlashtirish darajasi, qiziqishlari va maqsadlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etish, loyihalar ustida ishlash, o'zini-o'zi baholash hamda individual qobiliyatlarini boqichmabosqich rivojlantirish asosida aniqlashtirishga oid takliflardan "Developing speaking skills" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 28-maydagi 11-05-3450/04 sonli dalolatnoma). Natijada, akademik litsey o'quvchilarining xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion ta'lim mazmun-mohiyatini tahlil qilishga erishilgan;

sun'iy intellekt asosida akademik litsey o'quvchilarining xorijiy tillarni o'qitish modeli amaliy yondoshuvlar va tamoyillarni o'quvchilarning individual qiziqishi, tahliliy fikrlashi, sun'iy intellekt texnologiyalari vositasida tabiiy tilni qayta ishlash, xususan, yakkanutq va juftnutqning turli shakllarini simulyatsiya qilish orqali til o'rganish jarayoni ilmiy innovatsion va konstruktiv g'oyalarni rivojlantirishning natijaviyligini frontal ta'minlash asosida takomillashtirishga doir takliflar "Developing speaking skills" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 28-maydagi 11-05-3450/04 sonli dalolatnoma). Sun'iy intellekt asosida akademik litsey o'quvchilarining xorijiy tillarni o'qitishga doir yondashuvlar va tamoyillar rivojlantirish imkoni oshgan;

sun'iy intellekt asosida akademik litsey o'quvchilarining xorijiy tillarni o'qitish metodikasi virtual til almashinuvi, muloqot simulyatsiyasi, badiiy ijod texnologiyasi va hikoya qilib berish usullariga ko'ra adaptiv ta'lim platformalari va chatbotlar kabi sun'iy intellektga asoslangan vositalar yordamida rivojlantiruvchi mashqlarni kiritish asosida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirishning ilmiy-amaliy asoslari takomillashtirishga oid takliflardan "Developing speaking skills" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 28-maydagi 11-05-3450/04 sonli dalolatnoma). Natijada,

akademik litsey o'quvchilarining xorijiy tillarni o'qitish metodikasi takomillashtirilgan.

mustaqil ta'lim jarayonida sun'iy intellekt asosida akademik litsey o'quvchilarining xorijiy tillarni o'qitish samaradorligi auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda grammatik to'g'rilik, lug'at boyligi, talaffuz va intonatsiya, ravonlik va izchillik, interaktivlik xususiyatdagi mezonlar ko'ra birlashtirish hamda o'zini o'zi rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik mikromuhit yaratish asosida takomillashtirishga doir ma'lumotlardan "Developing speaking skills" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 28-maydagi 11-05-3450/04 sonli dalolatnoma). Natijada, sun'iy intellekt asosida akademik litsey o'quvchilarining xorijiy tillarni o'qitishning baholash mezonlari va innovatsion texnologiya vositalarini takomillashtirish imkoni amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: mazkur tadqiqot natijalari 4ta xalqaro va 3ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4ta maqola jumladan, 3 tasi respublika, 1tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot muammosining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan; ishning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan. Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining joriy etilishi, e'lon qilinganligi va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Akademik litsey o'quvchilariga xorijiy til o'qitishda innovatsion yondashuvning nazariy asoslari**" deb nomlangan. Ushbu bobda innovatsiya tushunchasining mohiyati va akademik litseylarda innovatsion yondashuvlarni qo'llashning pedagogik zaruriyati tahlil qilingan va asoslangan. Shuningdek, bobda innovatsion ta'limning asosiy didaktik imkoniyatlari aniqlanib, sun'iy intellektning ushbu jarayondagi o'rni, uning o'ziga xos didaktik salohiyati, til o'qitishga integratsiya qilishning nazariy jihatlari, ehtimoliy muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan.

Innovatsiya tushunchasining nazariy asoslarini ishlab chiqishga M.E.Abdullayev, V.Alimasov, B.Godin, V.R.Imakayev, V.S.Lazarev, V.M.Polonskiy, M.M.Potashnik, A.I.Prigojin, O.Qo'ysinov, E.M.Rogers, N.A.Shermuhammedova, S.P.Taylor,

A.I.Vagizova, K.Van den Branden, S.B.Xodjayev, O.G.Xomeriki, N.R.Yusufbekova kabi olimlar katta hissa qo‘shishgan.

Ushbu tadqiqot doirasida dastlab biz “innovatsiya”, “innovatika”, “pedagogik innovatsiyalar”, “yangilik” tushunchalarini ajratamiz:

innovatsiya – yangi g‘oyalar, usullar, mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarni yaratish, rivojlantirish va hayotga tatbiq etish.

innovatika – texnik yangiliklarni joriy etish va qo‘llashni o‘rganuvchi ilmiy soha.


pedagogik innovatsiyalar – pedagogik tizimdagi ta‘lim jarayonining borishi va natijalarini takomillashtiruvchi yangiliklar.

yangilik – innovatsiyaning asosiy elementi bo‘lib, mavjud bo‘lmagan yoki kam qo‘llanilgan yangi narsa.

Innovatsiya shunday tushunchaki, uning mohiyatini tushunish ta‘lim tizimida yangi yondashuvlarni joriy etish, o‘qitish jarayonini takomillashtirish va o‘quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Akademik litseylarda xorijiy til o‘qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishning pedagogik zaruriyati O‘zbekistondagi ta‘lim islohotlari, zamonaviy o‘quvchilar ya‘ni “Z avlodi”ning o‘ziga xos ehtiyojlari, globallashtirish sharoitidagi talablar va an‘anaviy ta‘limdagi ayrim muammolar nuqtai nazaridan chuqur asoslab berilgan. Bobda pedagogik innovatika masalalari, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish omillari va ehtimoliy to‘siqlar ham ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqot jarayonida xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion ta‘limning bir qator didaktik imkoniyatlari aniqlangan, jumladan, moslashuvchanlik, hamkorlikka asoslangan ta‘lim, ijtimoiy media platformalaridan foydalanish, o‘quvchilarni o‘z-o‘zini baholashga undash, onlayn platformalarning imkoniyatlari va sun‘iy intellekt texnologiyalarining roli.



1-rasm. Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion ta‘limning didaktik imkoniyatlari

Mazkur tadqiqotda aniqlangan didaktik imkoniyatlar zamonaviy til ta‘limining mohiyatini yangicha talqin qilishga undaydi:

moslashuvchanlik - shaxsiylashtirilgan ta‘limni ta‘minlash: an‘anaviy “hamma uchun bir xil” modelidan voz kechib, o‘quv jarayonini har bir til o‘rganuvchining

individual kognitiv xususiyatlari, ehtiyojlari va o‘zlashtirish sur‘atiga moslashtirish;

hamkorlik - faol ijtimoiy bilim konstruksiyasi: tilni individual o‘zlashtiriladigan qoidalar majmui sifatidagina emas, balki o‘zaro muloqot, munozara va birgalikdagi faoliyat natijasida “yaratiladigan” ijtimoiy hodisa sifatida qarash;

ijtimoiy media va onlayn platformalar – autentik raqamli kommunikativ muhitlarni yaratish;


refleksiya – o‘z-o‘zini boshqaruvchi o‘rganish mexanizmlarini shakllantirish;

sun‘iy intellekt – intellektual ko‘mak va adaptivlikni ta‘minlash.

Eng yangi texnologiyalar, xususan, sun‘iy intellekt vositalari (intellektual tyutorlik tizimlari, avtomatlashtirilgan qayta aloqa, adaptiv mashqlar) nafaqat o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, balki har bir o‘quvchiga o‘z vaqtida, individual va maqsadli yordam ko‘rsatish orqali o‘quv jarayonini tubdan optimallashtirish imkonini beradi.

Ushbu sanab o‘tilgan didaktik imkoniyatlar orasida, sun‘iy intellekt o‘zining keng qamrovli va transformatsion salohiyati bilan alohida ajralib turadi. U nafaqat o‘zi bir imkoniyat, balki boshqa innovatsion yondashuvlarning samaradorligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Xorijiy til o‘qitishda og‘zaki nutqni rivojlantirishga imkon beruvchi qator sun‘iy intellekt texnologiyalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari berilgan(2-rasm).



2-rasm. Sun‘iy intellekt texnologiyalari

Sun‘iy intellekt texnologiyalari xorijiy tillarni o‘qitish nazariyalarida ilgari surilgan individuallashtirish, interaktivlik va qayta aloqa tamoyillarini amaliyotga samarali tatbiq etish va keng auditoriyaga yetkazish (masshtablilik) imkonini beradi. Biz sun‘iy intellektning imkoniyatlari va xorijiy tillarni o‘qitish nazariyalarining o‘zaro to‘ldiruvchi jihatlarini qiyosiy tahlil qildik.

1-jadval.

Sun'iy intellekt va xorijiy tilni o'qitish nazariyalarining qiyosiy tahlili va o'zaro uyg'unligi

	Sun'iy intellekt	Xorijiy tilni o'qitish	O'zaro to'ldiruvchi jihatlar
Maqsad	Inson aql-zakovatini talab qiluvchi vazifalarni bajara oladigan aqlli tizimlarni yaratish	Insonlarning ikkinchi tilni qanday o'zlashtirishini tushunish	Sun'iy intellekt xorijiy tillarni o'qitish nazariyalariga muvofiq ravishda ishlab chiqilishi va samarali til o'rganishni ta'minlashi
Metodologiya	Algoritmlar, mashinaviy o'rganish, tabiiy tilni qayta ishlash	Til o'rganuvchilar bo'yicha kuzatuv va eksperimental tadqiqotlar	Sun'iy intellekt xorijiy tillarni o'qitish tadqiqotlaridan yanada samarali til o'rganish algoritmlarini yaratishda foydalanish
Individuallashtirish	Yuqori; Sun'iy intellekt o'quv tajribalarini individual ehtiyojlarga moslashtirishi	O'zgaruvchan; xorijiy tillarni o'qitish nazariyalari individual farqlarning muhimligini tan oladi, lekin yechim taklif qilmasligi mumkin	Sun'iy intellekt xorijiy tillarni o'qitish nazariyalari tavsiya qiladigan individuallashtirilgan o'quv tajribalarini ta'minlashi
Interaktivlik	Chatbotlar, virtual muhitlar va boshqalar orqali interaktiv o'quv tajribalarini taklif qila oladi	Til o'rganishda o'zaro ta'sirning muhimligini ta'kidlaydi	Sun'iy intellekt xorijiy tillarni o'qitishda muhim bo'lgan interaktiv tajribalarni taqdim eta oladi
Real vaqtda qayta aloqa	O'quvchi kiritgan ma'lumotlar asosida zudlik bilan fikr-mulohaza (feedback) beradi	Qayta aloqa (feedback) muhim hisoblanadi, lekin o'qituvchi yoki muhitga bog'liq	Sun'iy intellekt nazariyalariga ko'ra foydali bo'lgan tezkor va izchil fikr-mulohazalarni taqdim eta oladi
Mashtabliklik	Yuqori darajada mashtablanuvchan; ko'plab o'quvchilarga xizmat ko'rsatishi mumkin.	Sinf xonasi hajmi bilan cheklangan	Sun'iy intellekt ta'lim qamrovini kengaytirishi mumkin

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida o'quvchilarda sun'iy intellekt asosida xorijiy tilni (ingliz tili) o'qitishda bir qancha qiyinchiliklar o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

Sun'iy intellekt asosida xorijiy tilni o'qitishda asosiy qiyinchiliklar

Qiyinchiliklar	Tavsif
Texnik va texnologik muammolar	Internet, qurilma, dasturiy ta'minot nosozliklari.
Raqamli savodxonlik darajasidagi tafovut	O'quvchi yoki o'qituvchining sun'iy intellect vositalaridan foydalanish ko'nikmasining yetishmasligi va farqi.
Pedagogik integratsiya qiyinchiliklari	Sun'iy intellektni o'quv jarayoni va an'anaviy usullar bilan samarali uyg'unlashtirish.
O'quvchilarning psixologik to'siqlari	Qo'rquv, ishonchsizlik, yangi texnologiyaga salbiy munosabat.
Diqqatni jamlash muammosi	Sun'iy intellekt vositalarining (o'yin, chatbot) chalg'itish ehtimoli.
Maxfiylik va xavfsizlik xavflari	Shaxsiy ma'lumotlarning himoyalanganligi, kibexavf.

Mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha quyidagi yechim va tavsiyalar taklif etiladi:

ta'lim muassasalarida barqaror internet aloqasi, zamonaviy qurilmalar va litsenziyalangan dasturiy ta'minot bilan ta'minlash darajasini oshirish orqali tashkiliy va infratuzilmaviy masalalarni hal etish;

o'qituvchi va o'quvchilarning raqamli ko'nikmalarini, xususan, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish. Sun'iy intellektning imkoniyatlari va cheklovlari haqida tushuncha berish hamda o'qituvchilar uchun sun'iy intellekt platformalarini dars jarayoniga metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilish bo'yicha maqsadli o'quv kurslari va treninglar tashkil etish;

sun'iy intellekt vositalarini o'quv dasturlari va an'anaviy metodlar bilan uyg'unlashtirishning aniq metodik asoslarini ishlab chiqish. Sun'iy intellekt texnologiyalarini muayyan o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan, puxta rejalashtirilgan topshiriqlar orqali dars jarayoniga integratsiya qilish va o'qituvchilarga bu borada doimiy metodik ko'mak ko'rsatish;

o'quvchilarning yangi texnologiyalarga nisbatan munosabatini doimiy o'rganib borish, ularda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qo'rquv, ishonchsizlik yoki haddan tashqari ishonuvchanlik kabi holatlarni bartaraf etishga qaratilgan psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish. Sun'iy intellektni tayyor javoblar manbai sifatida emas, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xatolar ustida ishlash uchun vosita sifatida qo'llashga o'rgatish;

sun'iy intellekt vositalaridan (o'yinlar, chatbotlar) foydalanish me'yorlari, vaqti va turini o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda aniq belgilash. O'quvchilarning diqqatini asosiy o'quv materialiga va o'rganish jarayonining muhim elementlariga qaratishga yordam beruvchi didaktik usullarni qo'llash;

ta'lim jarayonida qo'llaniladigan sun'iy intellekt platformalari va vositalarida shaxsiy ma'lumotlar himoyasining yuqori darajasini ta'minlash. Foydalanuvchilarga (o'quvchi, o'qituvchi, ota-onalar) ularning ma'lumotlari qanday to'planishi, qayta ishlanishi va himoyalaniishi haqida shaffof va tushunarli axborot berish tizimini yo'lga qo'yish.

Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalarini til o'qitishga samarali integratsiya qilishda D. Laurillardning "Muloqot modeli"da ilgari surilgan diskursivlik (o'zaro fikr almashinuv), moslashuvchanlik (jarayonni o'quvchiga moslashtirish), interaktivlik (o'quvchining faol ishtiroki va qayta aloqa) va reflektivlik (o'z o'rganishini tahlil qilish) tamoyillariga qat'iy rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa sun'iy intellekt vositalaridan shunchaki texnik imkoniyat sifatida emas, balki chuqur didaktik maqsadlarga erishishning samarali vositasi sifatida foydalanishni ta'minlaydi.

D.Larsen-Fremanning zamonaviy "raqamli avlod"ning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi qarashlari inobatga olinib, akademik litsey o'quvchilarining axborotni tez o'zlashtirish, mustaqil izlanishga moyilligi va shaxsiylashtirilgan yondashuvlarga bo'lgan ehtiyojlari tahlil qilindi. Sun'iy intellekt texnologiyalari aynan ushbu ehtiyojlarga javob berishi, ya'ni o'quv jarayonini har bir o'quvchining individual maqsadlariga, jumladan oliy ta'limga kirish, xalqaro imtihonlarga tayyorlanish va real hayotiy muloqotga tayyor bo'lish kabi maqsadlarga moslashtirishga qodir intellektual tizim ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqotda sun'iy intellekt integratsiyasiga asoslangan innovatsion ta'lim yondashuvlarining xorijiy tillarni o'qitishdagi quyidagi qo'shimcha afzalliklari aniqlandi va ilmiy jihatdan asoslandi:

o'quvchilarning raqamli savodxonligi va XXI asr uchun zarur bo'lgan keng qamrovli ko'nikmalari, xususan axborotni tanqidiy tahlil qilish, media savodxonlik va yangi texnologiyalarga tez moslashish qobiliyatlari samarali shakllantirilishi;

o'quvchi mustaqilligi, ya'ni avtonomligi kuchaytirilib, ularga o'z ta'lim maqsadlarini belgilash, o'rganish sur'ati va uslubini tanlash hamda o'zlashtirish jarayonini ongli ravishda boshqarish imkoniyatlari kengaytirilishi;

ta'lim jarayoni haqida obyektiv ma'lumotlar, ya'ni "learning analytics" to'plash va tahlil qilish orqali o'qitish metodikalarini doimiy takomillashtirib borish, qiyinchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga samarali yechim topish uchun mustahkam asos yaratilishi;

o'qituvchining an'anaviy bilim uzatuvchi rolidan ko'ra ko'proq yo'naltiruvchi (fasilitator), murabbiy (mentor) va o'quv jarayonining dizayneri sifatidagi yangi, ijodiy jihatlari ochib berilishi hamda ularning doimiy kasbiy rivojlanishiga turtki bo'lishi;

kelajakdagi oliy ta'lim va professional faoliyat muhitlariga tayyorgarlik, o'quvchilarning zamonaviy raqamli vositalar va sun'iy intellekt bilan ishlash bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lishlari orqali kuchaytirilishi.

Ikkinchi bob "**Akademik litsey o'quvchilariga xorijiy til o'qitishda sun'iy intellektning innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi**" deb nomlanib, sun'iy intellektning produktiv ko'nikmalar bilan integrallashuvi, gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning shakl, usul va metodlari, sun'iy intellekt til modellarining gapirish ko'nikmasini rivojlantirishini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish yo'llari aniqlashtirilgan.

Tadqiqot ishida sun'iy intellekt til modellarining gapirish ko'nikmasini turli bosqichlarida (fikrni shakllantirish, ifodalash va talaffuz qilish) o'quvchilarga qanday yordam berishi mumkinligi ko'rib chiqilgan. Xususan, lug'at boyligini oshirish, grammatik va talaffuz ko'nikmalarini takomillashtirishda sun'iy intellektning imkoniyatlari tahlil qilingan.

Gapirish ko'nikmasini amaliyotga tatbiq etishning eng muhim vositasi o'quv nutqiy vaziyatlarini yaratishdir. J.J.Jalolov ta'kidlaganidek, xorijiy tilda gapirishga motivatsiya, ya'ni ma'lum bir maqsadda fikr bildirish ehtiyoji birinchi galda o'quv vaziyatini to'g'ri tashkil etish orqali uyg'otiladi. An'anaviy darsliklar va sinf xonasidagi imkoniyatlar ko'pincha cheklangan bo'lsa, sun'iy intellekt texnologiyalari bu chegaralarni kengaytirib, akademik litsey o'quvchilari uchun yanada rang-barang, interaktiv va eng muhimi, shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv nutqiy vaziyatlarini modellashtirish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotda akademik litsey o'quvchilari uchun o'quv nutqiy vaziyatlarni sun'iy intellekt yordamida yaratishning quyidagi konseptual yondashuvi taklif etildi:

real hayotiy va akademik kontekstlarning kengaytirilgan simulyatsiyasi;

moslashuvchan ssenariylar va individual yondashuvlar;

xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi eksperimental muhit.

Sun'iy intellekt til modellari yakkanutq va juftnutqni rivojlantirishda ham samarali qo'llanilishi mumkin. Monologik nutqni (yakka nutq) rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalari o'quvchilarning tavsiflovchi, hikoyalovchi, tushuntiruvchi va

mulohazali nutq shakllarini interaktiv tarzda takrorlash, tinglab o‘z-o‘zini baholash va avtomatlashtirilgan tahlildan o‘tkazish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bunday simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar real hayotiy yoki imtihon vaziyatlariga mos ravishda o‘z fikrlarini erkinroq bildirish, talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish hamda nutqning mantiqiy tuzilishini mustahkamlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Tadqiqotimizda yakkanutqni shakllantirishning asosiy bosqichlarida sun‘iy intellekt til modellari quyidagicha maqsadli yordam ko‘rsatishi aniqlandi:

shaxsiy tajriba va g‘oyalarni faollashtirish bosqichida: sun‘iy intellekt, masalan, ChatGPT kabi chatbotlar, berilgan mavzu yuzasidan o‘quvchiga yo‘naltiruvchi savollar berish, dastlabki fikrlarini kengaytirish uchun qo‘shimcha aspektlarni taklif qilish va tegishli leksik birliklarni eslatish orqali uning shaxsiy tajribasi va bilimlarini nutq uchun safarbar etishga ko‘maklashadi;

fikrlarni mantiqiy izchillikda tuzish va bayon qilish bosqichida: sun‘iy intellektga asoslangan vositalar, jumladan Grammarly kabi matn tahrirlovchilari yoki nutqni tahlil qiluvchi dasturlar, o‘quvchi tayyorlagan monolog matnini (yoki uning ovozi yozuvini) tahlil qilib, fikrlar ketma-ketligi, mantiqiy bog‘lanishlar, kirish-asosiy-xulosa qismlarining mutanosibligi va argumentlarning asosiligi bo‘yicha konstruktiv takliflar beradi. Shuningdek, nutq ravonligi uchun zarur bo‘lgan bog‘lovchi so‘z va iboralarni tavsiya etishi mumkin.

axborotni yaxlit, ta‘sirchan va maqsadli yetkazish bosqichida: sun‘iy intellekt o‘quvchiga o‘z monologini to‘liq yetkazib berishni mashq qilish uchun virtual auditoriya yoki interaktiv platforma vazifasini o‘tashi mumkin. Bunda nutqning davomiyligi, tempi, pauzalarning o‘rinliliigi haqida fikr-mulohaza olish, shuningdek, mavzuni to‘liq ochib berish uchun kerakli qo‘shimcha dalillar yoki misollarni topishda ham sun‘iy intellektdan yordam olish imkoniyati mavjud.

Dialogik nutqni (juft nutq) o‘rgatishda sun‘iy intellekt til modellarining qo‘llanilishi ayniqsa keng imkoniyatlar ochadi. Dialog faqat savol-javobdan iborat bo‘lmay, balki tasdiqlash, rad etish, fikr bildirish, taklif qilish kabi turli kommunikativ funksiyalarni bajaruvchi replikalarning almashinuvidan tashkil topadi. Tadqiqotda sun‘iy intellekt til modellarining aynan shunday turli replika turlarini generatsiya qilish qobiliyati dialogik ko‘nikmalarning xilma-xilligini ta‘minlashi va o‘quvchilarni turli muloqot vazifalariga tayyorlashi asoslandi.

Tadqiqotda o‘quvchilarning gapirish ko‘nikmasini egallashda duch keladigan lingvistik, ijtimoiy va psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etishda sun‘iy intellekt texnologiyalarining samarali yechimlari taklif etilgan va ularning amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Xususan, sun‘iy intellektning shaxsiylashtirilgan mashqlar, tezkor avtomatlashtirilgan tahlil va qayta aloqa orqali lingvistik kamchiliklarni tuzatishi; interaktiv chatbotlar va simulyatsiyalar yordamida xavfsiz muhitda og‘zaki nutqni mashq qildirib, o‘ziga ishonchni mustahkamlashi; shuningdek, o‘yinlashtirish va qiziqarli kontent bilan motivatsiyani oshirib, psixologik xavotirlarni kamaytirishi muhimligi asoslangan.

Akademik litsey o‘quvchilariga xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilidagi gapirish ko‘nikmasini sun‘iy intellekt texnologiyalari yordamida samarali rivojlantirish uchun maxsus didaktik model va uni amalga oshirish metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu model va metodika birinchi bobda tahlil qilingan innovatsion ta‘limning didaktik imkoniyatlari, sun‘iy intellektning o‘ziga xos salohiyati hamda til o‘qitishning fundamental nazariy-metodologik asoslariga tayanadi.

O‘quv nutqiy vaziyatlarda sun’iy intellekt til modellarining juft nutqda replikalar almashinuvida qo‘llashning xususiyatlari

Ikki replika (dialogik birlik) nutqiy vaziyatga mos kelishi;	Ta’rif	Misol	Ko‘zlangan maqsad/erishiladigan natija
Kontekstni tahlil qilish	Suhbatning mavzusi, so‘zlashuvchi shaxslarning munosabati, joylashuv va vaqt kabi omillarni tahlil qilish	Agar o‘quvchi do‘sti bilan norasmiy suhbatlashsa, til modeli so‘zlashuv uslubini shunga moslashtiradi	Haqiqiy vaziyatlarda nutqni mashq qilish
O‘quvchining replikasini tushunish	Til modeli o‘quvchining so‘zlarini tahlil qilib, uning maqsadini va hissiyotlarini tushunishga harakat qiladi	Student: “I’m so stressed about my exams”. Til modeli: (stressni tushunib) “I understand. Exams can be stressful. Would you like to talk about it?”	O‘quvchilarning hissiy holatini tushunish va mos javob berish
Dialogni davom ettirish	Til modeli o‘quvchining javobiga qarab, suhbatni davom ettirish uchun yangi savollar berishi yoki mavzuni rivojlantirishi mumkin	Student: “Thanks! I’m planning a trip there next week”. Til modeli: “That’s great! Do you have any specific places you’d like to visit?”	Tabiiy suhbat davomiyligini ta’minlash

Ishlab chiqilgan didaktik modelning negizini kommunikativlik, faollik, onglilik, bosqichma-bosqichlik va individuallik kabi asosiy didaktik tamoyillar tashkil etadi. Ushbu tamoyillar sun’iy intellekt til modellarining imkoniyatlari orqali o‘quv jarayoniga singdirilib, har bir tamoyilning amaliy ko‘rinishi ta’minlandi.

Ushbu model o‘zining metodologik asosida to‘rtta fundamental yondashuvning integratsiyasiga tayanadi. Birinchidan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim markaziga o‘quvchining o‘zini qo‘yish orqali uni jarayonning faol subyektiga aylantiradi. Ikkinchidan, kommunikativ yondashuv tilni real muloqot vositasi sifatida o‘rganishni ta’minlaydi va bizning ishimizda sun’iy intellekt chatbotlar bilan olib boriladigan interaktiv dialoglar orqali amalga oshiriladi. Uchinchidan, tizimli yondashuv barcha komponentlarni (maqsad, mazmun, metod, vosita, baholash) yagona maqsad yo‘lida birlashtiruvchi yaxlit didaktik modelni yaratishga xizmat qiladi. Texnologik yondashuv esa o‘quv jarayonini aniq, takrorlanuvchan natijaga ega bo‘lgan bosqichlarga (tayyorgarlik, faol amaliyot, refleksiya) ajratib, uni boshqariladigan va samaradorligi o‘lchanadigan jarayonga aylantiradi.

